

O'RTA ASR KUTUBXONACHILIGIGA MUSULMONLARNING QO'SHGAN HISSASI

TerDU "O'zbekiston tarixi va
manbashunoslik" kafedrası tayanch doktoranti
Egamov Nazirbek Nurullayevich
+998942067377
naziregamov7@gmail.com

Annotatsiya: Kutubxonalar islom olamida, avvalo, Qur'on va hadislarni saqlash va uni avlodlarga mukammal yetkazish uchun ahamiyatli maskan hisoblangan. Keyinchalik esa ular yirik ilm maskanlarining vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Bora-bora bu ilm maskanlari ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni targ'ib va tadqiq etadigan yirik akademiyalga aylanib ketgan. "Bayt ul-hikma", "Ma'mun akademiyasi" kabi ilm dargohlarining vujudga kelishida ham kitob xazinalarining o'rni katta bo'lgan.

Kalit so'zlar: xattot, lavvoh, sahhof, muzahhib, madrasa, masjid, Qur'on, Bag'dod, Halab, "Bayt ul-hikma".

ВКЛАД МУСУЛЬМАН В СРЕДНЕВЕКОВОЕ БИБЛИОТЕЧНОЕ ДЕЛО

Эгамов Назирбек Нуруллаевич –
докторант кафедры « История и
источниковедение Узбекистана » ТерГУ.
+998942067377
naziregamov7@gmail.com

Аннотация: В исламском мире библиотеки считаются важным местом хранения Корана и хадисов и передачи их поколениям. Позже они послужили основой для создания крупных научных центров. Постепенно эти центры знаний превратились в крупные академические учреждения, которые продвигают и исследуют как религиозные, так и светские знания. Книжные сокровища сыграли важную роль в создании таких учебных заведений, как «Бейт уль-Хикма» и «Академия Маъмуна».

Ключевые слова: каллиграф, лаввах, саххаф, музахиб, медресе, мечеть, Коран, Багдад, Алеппо, «Бейт уль-Хикма».

THE CONTRIBUTION OF MUSLIMS TO MEDIEVAL LIBRARY STUDIES

Egamov Nazirbek Nurullayevych is a
doctoral student of TerSU " History of
Uzbekistan and source studies" department
+998942067377
naziregamov7@gmail.com

Abstract: Libraries in the Islamic world were considered, first of all, an important place for preserving the Quran and Hadith and transmitting them perfectly to future generations. Later, they served as the basis for the emergence of large scientific institutions. Gradually, these scientific institutions turned into large academies that promoted and researched both religious and secular knowledge. Book treasures also played a significant role in the emergence of scientific institutions such as "Bayt ul-Hikma" and "Ma'mun Academy".

Key words: calligrapher, tablet, sahaf, muzahib, madrasa, mosque, Quran, Baghdad, Aleppo, "Bayt ul-Hikma".

Insoniyat tarixida kutubxonalarning o'rni beqiyos. Qog'oz yaratilgandan keyingi davrda ularning soni va salmog'i ancha sezilarli darajada rivojlangan. Kutubxonalarning ko'payishi va ularning qadrlanishida islom olami vakillarining ham xizmatlari katta bo'lgan.

Islom dini tarqalib, musulmon davlatlari ko'payib borgach, kutubxonalarning ma'rifat tarqatuvchi roli keskin oshgan. Hatto kutubxonachilik ishida ham bir qancha siljishlar kuzatilgan. Xususan, islomiy kutubxonalar birinchilardan bo'lib tegishli materiallar katalogini joriy qilgan, degan taxminlar bor. Bunda kitob javonining tarkibi qog'ozga yozilgan va javonning oxiriga ilova qilingan, shu tariqa kataloglashtirishning qadimgi ko'rinishi vujudga kelgan. Nasroniy kutubxonalari kabi islomiy kutubxonalar ham, asosan, qog'ozdan qilingan kitoblarni o'z ichiga olgan va kodeks yoki varaqlar o'rniga zamonaviy

shakldagi kitoblar bilan to'ldirilgan. Bu ,o'z navbatida, kitob bilan bog'liq bo'lgan xattotlar, sahhoflar, lavvohlar, muzahhiblar kabi bir qator kasblarning rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Kutubxonalar, asosan, masjidlarda, madrasalarda, xususiy uylarda va saroylarda tashkil etilgan.

Dastlab kutubxonalar musulmonlar uchun u qadar o'ziga jalb qiladigan maskan hisoblanmagan. Ammo yangi din paydo bo'lgach, holat o'zgargan. Musulmon dunyosida kitoblar to'plamining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan narsa musulmonlarning muqaddas kitobi - Qur'onni saqlash zarurati va islomning payg'ambari Muhammad (sav)ning amallari va odatlarini avlodlarga yetkazish vazifasi edi. Agar ilgari urf-odatlar va tarix og'zaki bo'lgan bo'lsa, Qur'on so'zlarini saqlab qolish zarurati bu so'zlarni og'zaki ravishda emas, balki boshqa usullar bilan saqlash usulini taqozo etdi. Buning natijasida musulmon jamiyatining kundalik hayotida hamma narsaning markazi bo'lgan masjidlar Qur'ondan tortib, falsafa va tibbiyotga oid kitoblargacha bo'lgan barcha bilimlarni saqlaydigan kutubxonalarga aylandi. Bundan tashqari islom dinida ilm olish va uni tarqatishning savobli ish ekanligi haqidagi g'oyalar bu sohaning rivojiga ajoyib turtki bo'lib xizmat qildi.

Ayniqsa, Abbosiylar davrida Qur'on va hadislardan ta'sirlanganlar: "Olimning siyohi shahidning qoniga tengdir", - degan fikrni zo'r berib targ'ib qilganlar. Bu targ'ibot hattoki hukmdorlarni ham jumbushga keltirgan. Natijada xalifalar, hokim-u noiblar kitoblar yozilishiga, kutubxonalar va ilm markazlari tashkil etilishiga homiylik qilganlar. Oqibatda musulmon olami tezda ko'plab ilm markazlariga ega bo'la boshladi, ularda turli xil ensiklopediyalar, tarjimalar, sharhlar va musulmon faylasuflari va olimlari tomonidan yozilgan risolalar mavjud edi.

VIII asrga kelib avval eronliklar, keyin arablar Xitoydan qog'oz ishlab chiqarish sirlarini o'zlashtirdilar. Endilikda qog'oz ishlab chiqarish islom dunyosi uchun yangilik bo'lmay qoldi, hattoki 794-yilda Bag'dodda "qog'oz fabrikasi" ishga tushganligi haqida ma'lumotlar bor. Ushbu texnik takomillashtirish natijasida kitoblar osonlikcha ishlab chiqarildi va ularga kengroq kirish imkoniyati yaratildi. Ilm-fanni targ'ib qilish va tarjima ishlarida katta yutuqlarga erishildi, shu

bilan bir vaqtda jamoat va xususiy kutubxonalar islomiy mamlakatlarning hamma joylarida rivojlana boshladi. Islom hududlarida bir qator taniqli kutubxonalar tashkil topdi va islom shariati tarqalishi bilan birga rivojlandi.

Qog'ozga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi IX asrga kelib ko'plab islomiy shaharlarda ommaviy kutubxonalarning paydo bo'la boshlashiga sabab bo'ldi. Ular odatda "Dor ul-ilm", ya'ni "Ilm uylari" deb nomlangan. Bora-bora bu "ilm uylari" ko'plab olimlar izlanish olib boradigan, nusxa ko'chiruvchilar boshqa millatlarning asarlarini arab tiliga tarjima qiladigan, mudarrislar tolibi ilmlarga ilm o'rgatadigan ilm maskaniga, zamonaviy til bilan aytilganda, universitet va akademiyalarga aylandi.

O'rta asrlarda Suriyaning Halab (hozirgi Aleppo) shahridagi katta masjidda joylashgan eng katta va ehtimol eng qadimgi masjid kutubxonasi katta kitoblar to'plamini o'z ichiga olgan bo'lib, uning 10000 jildini Halabning eng mashhur shahzodalaridan biri Sayf ad-Davla sovg'a qilgan.

Afrikadagi islomiy davlatlar XI asrdan boshlab ta'lim sohasida jadal rivojlana boshladilar. Alohida ahamiyatga ega bo'lgan kutubxonalardan biri Tombuktudagi kutubxona bo'lib, unda 600 yil davomida muhim bo'lgan ko'plab qo'lyozmalar saqlangan. Tombuktuning o'sha davrlardagi eng taniqli olimlaridan biri edi Ahmad Baba bo'lib, u 40 dan ortiq vaqt mobaynida turli qo'lyozmalar yozgan. Arablar va yevropaliklar bosqini davrida ko'plab qo'lyozmalar va binolar vayron qilingan, 1591-yilda ko'plab ziyolilar, jumladan, Ahmad Baba ham asirga olingan. Bosqinlarga qaramay yomon muhofaza qilish sharoitida 700 mingga yaqin qo'lyozma bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Islom olamidagi ilm-ma'rifatning gullab-yashnashi mo'g'ullar bosqini davrida pasayib ketdi. Kutubxonalar va ilm dargohlarining ko'pi mo'g'ul bosqinchilari tomonidan vayron qilindi, boshqalari islom dunyosidagi urushlar va diniy nizolar qurboniga aylandi. Biroq, ushbu o'rta asr kutubxonalarining bir nechta namunalari, masalan G'arbiy Afrikadagi Chinguetti kutubxonasi butunligicha va nisbatan o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Ushbu davrdagi yana bir qadimiy kutubxona hanuzgacha faoliyat yuritib, kengayib bormoqda: bu Eronning

Mashhad shahridagi Astan Quds Razaviy kutubxonasi bo'lib, u olti asrdan ko'proq vaqt davomida ishlab kelmoqda.

Bundan tashqari islom mamlakatlarida yana ko'plab mashhur kutubxonalar mavjud bo'lgan. Ular orasida IX asrda yashagan abbosiy Xalifa al-Mutavakkil Iroqda "Zoviyat qurra" kutubxonasini qurdirgan. Shu asrda Xalifa Ma'mun davrida saroy munajjimi bo'lgan marvlik Yahyo ibn Abu Mansur tomonidan asos solingan kutubxona ham turli xil fan va ilmlar, xususan astrologiyaga oid juda ko'p kitoblarga ega bo'lgan. Ushbu kutubxona "Donolik xazinasi" yoki "Xazana Al-Hikma" deb nomlangan.

Buxoro somoniylaridan Nuh Ibn Mansur (X asr) ham o'z davri uchun o'ta noyob hisoblangan kitoblardan iborat kutubxonaga ega bo'lgan. Mashhur alloma Abu Ali ibn Sino hukmdor Nuh ibn Mansurni davolagach, u bilan ancha yaqin bo'lib qolgan. Kitoblardan dori-darmonlar haqidagi ma'lumotlarni qidirib topgach, hukmdordan kutubxonaga doimiy kirish uchun ruxsat so'raydi. Kitoblar to'plami juda ko'p xonalardan iborat edi, har bir xonada ko'p sonli qutilar bor edi va har bir quti kitob to'plamlari bilan to'ldirilgan edi. Ibn Sino kutubxonani jildlar soni va kitoblar qiymati jihatidan "favqulodda" deb ta'riflagan. X asrda Eronlik Sohib ibn Abbod ismli vazir Ray shahrida 200 ming nusxa kitob fondiga ega bo'lgan kutubxonaga asos solgan. Ammo Rayni 1029-yilda Mahmud G'aznaviy bosib olgach, kutubxonaning bir qismi vayron etiladi, kerakli kitoblar G'azna shahridagi kutubxonaga olib ketiladi.

Bundan keyingi davrlarda ham musulmon hukmdorlar ko'plab ilm markazlari va kutubxonalarga asos solib, ilm-ma'rifatga katta hissa qo'shganlar. Ularning xizmatlari samarasidan o'z zamonasi olim-u, fozillari ham, kelajak avlodlardan yetishib chiqqan ilm ahli ham foydalanib kelganlar. Shuning uchun qimmatli kitoblarni, diniy va dunyoviy bilimlarni keying davlarga, va hattoki, bugungi kungacha yetib kelishida o'rta asrlarda islom olamida vujudga kelgan kutubxonalar beqiyos hissa qo'shdi, deyish mumkin. Bu ilmlardan esa bugungi kunda nafaqat musulmonlar, balki butun dunyo ahli bahramand bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent. Fan, 1968.
2. Ашрафи М. Рукописные хранилища Бухары эпохи Авиценны И последующих веков. / Абу Али ибн Сино и его эпоха. Душанбе.: Дониш, 1980.
3. Ibn Sino. Tarjimai hol. /Arabchadan A. Irisov tarjimasi// Guliston, 1979.
4. FSTC Limited (10 January 2003). "The Beginning of the Paper Industry". Muslim Heritage. Retrieved 13 April 2019.
5. Wani, Z. A., & Maqbol, T. (2012). The Islamic Era and Its Importance to Knowledge and the Development of Libraries. Library Philosophy & Practice, p. 208.
6. Al-Hamawi, Yagut (1380). Monzavi, Ali Naghi (ed.). Mu'jam al-Buldān. Tehran: Cultural Heritage Organization. ISBN 964-7483-02-3.
7. Jump up to:^{a b} Mackensen, Ruth (July 1932). "Four Great Libraries of Medieval Baghdad". The Library Quarterly: Information, Community, Policy. 2 (3): 279–299. doi:10.1086/613127. S2CID 144041402.
8. Virani, Shafique N. (1 April 2007). The Ismailis in the Middle Ages. Oxford University Press. doi:10.1093/acprof:oso/9780195311730.001.0001. ISBN 978-0-19-531173-0.
9. Goeje, M.J. de, ed. (1906). "Al-Muqaddasi: Ahsan al-Ta'asim". Bibliotheca geographorum Arabicorum (in Arabic). Vol. III. Leiden: E.J. Brill. p. 449.
10. Antonson, Rick (2008). Hidden Treasure of Timbuktu. Dundurn Toronto. p. 221. ISBN 9780500514214.
11. Sibai, Mohamed Makki (1987). Mosque libraries: An Historical Study. Mansell Publishing Limited. p. 71. ISBN 978-0-7201-1896-4.